

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Қозимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUHORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Musayev A.B.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası dotsenti

Farg‘ona davlat universiteti

shaxbo1990.ab@gmail.com**MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI****ANNOTATSIYA**

Maqolada Ashtarxoniylar davriga oid Farg‘ona vodiysi siyosiy voqealarining yozma manbalarda aks etishi tadqiq qilingan. Vodiy hududi xonlikning sharqiy sarhadi bo‘lganligi sababli, manbalarda ushbu chekka mintaqaga oid ma’lumotlar nisbatan kam uchraydi. Bu holat esa siyosiy jarayonlar asosan faqat markaziy hududlar atrofida kechgan, degan yanglish xulosalarga olib kelishi mumkin. Manbalardagi ma’lumotlar tahlili XVII asrning birinchi yarmida vodiy siyosiy hayoti nihoyatda qizg‘in kechganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, Ashtarxoniylar sulolasi, Buxoro xonligi, Andijon, Boqi Muhammadxon, Imomqulixon, Keldi Muhammadxon, Abulay sulton.

KIRISH

Buxoro xonligining ashtarxoniylar davri tarixi bo‘yicha muarrixlar tomonidan xonlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatlarini o‘z ichiga olgan qator asarlar yozilgan. Ushbu manbalarda, asosan, xonlik markazidagi voqealarga ko‘proq urg‘u berilgan bo‘lsa-da, voqealarning davriy ketma-ketligida xonlikning sharqiy hududlari ham tilga olingan. Mahalliy tarixchilar bilan birga xonlikka qo‘shni bo‘lgan Safaviylar davlati, Yorkend xonligi, Boburiylar salatanati va Rossiya imperiyasida ham bevosita mavzuga oid manba, esdalik hamda rasmiy hujjatlar uchrab turadi. Mavjud manbalarni qiyosiy va tanqidiy tahlil etish tufayli nafaqat Buxoro xonligining siyosiy tarixi, balki, Farg‘ona vodiysining XVII asrga oid yangi tafsilotlarini aniqlash va uni ilmiy jamoatchilikka yetkazish mumkin.

Mazkur davrga oid yozma manbalar yetarli darajada bo‘lib, ularning aksariyati fors tilidagi asarlar tashkil qiladi. Jumladan, Muhammad ibn Arab Qatag‘onning “Musaxxir al-bilod”, Mahmud ibn Vali tomonidan 1640-yil yozilgan “Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor”, Imomqulixonoma, Ahmad ibn Shamsiddinning “Tarixi miftah ul-qulub”, Abdul Hamid Lohuriy “Bodshohnoma” (Podshohnoma), Shoh Mahmud Churosning “Tarix” kabi manbalar shu asarlar sirasiga kiradi. Yuqoridagi manbalar turli vaqt va makonda yozilganligi tufayli ularni tanqidiy, qiyosiy, xronologik metodlari asosida tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar taqdim etildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Buxoro xonligini bir yarim asrdan ziyod vaqt davomida idora etgan Ashtarxoniylar sulolasi davri o'zbek davlatchiligi tarixining eng murakkab va tizimli tadqiq etilishi lozim bo'lgan bosqichlaridan biri hisoblanadi. XVII asrga kelib, butun musulmon Sharqini qamrab olgan iqtisodiy o'zgarishlar va Buyuk Ipak yo'lining o'z ahamiyatini yo'qotishi natijasida yuzaga kelgan turg'unlik jarayonlari mazkur sulola hukmronligi davriga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunga qaramay, Boqi Muhammadxon, Imomqulixon kabi hukmdorlar davrida xonlik o'ziga xos siyosiy barqarorlik va madaniy-me'moriy yuksalishga erisha oldi. Biroq keyingi davrlarda kuchaygan separatistik kuchlarning harakatlari va sulolaviy ichki urushlar xalq xo'jaligini og'ir inqiroz va aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi. Mintaqadagi ushbu jarayonlarni, markaz va chekka viloyatlar, xususan, Farg'ona vodiysi o'rtasidagi munosabatlarni xolis va obbyektiv baholashda yozma manbalarining tanqidiy tahlili birlamchi va eng ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi.

O'rganilayotgan davr bo'yicha manbalar guruhida salmog'li qismini tarixiy asarlar tashkil etadi. Bu manbalarning ayrimlari o'zbek, rus, ingliz tiliga tarjima qilingan bo'lsa-da, aksariyati eski o'zbek hamda fors tilida dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda. Farg'ona vodiysining tanlangan tadqiqot davri bo'yicha uchraydigan bu turkumdagi manbalarni ham geografik jihatdan to'rt guruhga bo'lishni lozim deb topdik:

1) Mahalliy tarixchilarning asarlari; 2) Eron (Safaviylar)da yozilgan manbalar; 3) Boburiylar saltanatida yaratilgan asarlar; 4) Yorkend xonligida bitilgan manbalar.

Dastlab mahalliy muarrixlar tomonidan yozilgan manbalarga to'xtalsak. Muhammad ibn Arab Qatag'onning 1610-yil yozilgan "Musaxxir al-bilod" ("Mamlakatlarning egallanishi") fors tilida yozilgan muhim ma'lumotlarga boy manbadir. Asarda, asosan, shayboniylar sulolasi davridagi jarayonlar aks etsa-da, ba'zi o'rinlarda, XVII asrning dastlabki o'n yilligi haqida to'xtalib o'tilgan. Muallif Abdullaxon II va ashtarxoni Boqi Muhammadxon saroyida xizmat qilganligi o'sha davrda ro'y bergan voqealarning ishtirokchisi sifatida u bergan ma'lumotlarning ahamiyatini oshiradi [11: 217]. Manbaning bugungi kungacha ikki nusxasi ma'lum. Asar olti bobdan iborat bo'lib, so'nggi ikki bob hali topilmagan. Manbani o'rganish o'tgan asrda boshlanib, uning nomi va muallifi haqidagi ilk bor M.A.Salohiddinova ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilgan [10]. Bugungi kunda asar 2008-yil Tehron, 2009-yil esa Toshkentda fors va o'zbek tillarida chop etilgan [8, 9]. Kitobda Keldi Muhammadxon haqida boshqa manbalarda uchramaydigan qaydlar [9: 173], soxta Abdulg'affor sulton va uning Andijon hamda Axsi ustidan hukmronlik qilgani [9: 174] haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Ashtarxoniylar sulolasi bo'yicha yirik va nodir manba, shubhasiz, Mahmud ibn Vali tomonidan 1640-yil yozilgan "Bahr ul-asror fi manaqib ul-ahyor" (Olijanob kishilarning jasorati haqida sirlar dengizi) asari hisoblanadi. Muallifning otasi kasonlik bo'lib shayboniy Pir Muhammadxon (1546-1567) zamonida Balxga ko'chib kelgan [5: 223; 6: 66; 11: 222; 13: 194]. O'ziga to'q va ziyoli oilada tug'ilganligi Mahmud ibn Valining keying hayotiga ijobiy ta'sir qildi. Muarrixning

Sayyid Mirakshoh Husayniyninng boy kutubxonasi bilan yaqindan tanishishi, uning olim bo'lib yetishishida muhim rol o'ynadi. 1626–1631-yillarda Hindiston va Shri-Lankaga uzoq safar qildi. 1631-yil Balxga qaytgan olimni Nadr Muhammadxon iliq qarshi oldi hamda uni o'z kutubxonasining kitobdori etib tayinladi. Ayni shu davrdan boshlab jami yetti jildlik va har biri to'rt qismdan iborat “Bahr ul-asror” qomusiy asarini yozishga kirishdi. Muallif asarni quyidagi tartib bilan tuzadi:

I jild – Dunyoning yaratilishi, geografiya va jug'rofiyaga oid ma'lumotlar;

II jild – Islomgacha bo'lgan davr;

III jild – Payg'ambar Muhammad alayhissalom tarixi;

IV jild – Xalifa va imomlar tarixi;

V jild – Abbosiylar xalifaligi va undagi mahalliy sulolalar tarixi;

VI jild – Chingizxondan Nadr Muhammadxongacha bo'lgan davr;

VII jild – Amir Temurdan boburiy Shoh Jahongacha bo'lgan tarix

Bunday yirik asarning bizgacha faqat I va VI jildlarigina yetib kelgan. Manbaning eng qimmatli rukni ashtarxoniylar davridagi jarayonlar aks etgan VI jildning 4-qismidir. Hozirda u Angliyadagi India Office kutubxonasida № 575 raqami bilan saqlanadi [4]. Tadqiqotimizda biz shu qismdan foydalandik. 1902-yildan ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan manbaning ayrim qismlari rus, fors tillariga tarjima qilingan [16, 17, 18]. Bugungi kungacha asar bo'yicha juda ko'p olimlar tomonidan maqola, dissertatsiya hamda adabiyotlar nashr etilgan.

Endi bevosita manbadagi ma'lumotlardan Farg'ona vodiysiga tegishli jihatlariga e'tibor qaratsak. Keldi Muhammadxonning 1599-1603-yillarda O'ratepa, Toshkent va Samarqandga hujumi, Andijonni keyingi davrlarda boshqargan Xonzoda, Abulay sulton, Fozilxo'ja, Pir Muhammadxon kabi shaxslarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki haqida boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli qaydlar mavjud [4: 62b, 73a-73b, 103b-104b, 113a, 118b -119b].

Bu davrga mansub muhim manbalardan biri – Imomqulixonoma (“امام قلی خان نامه”) asaridir. Yaqin vaqtlargacha manbaning muallifi Suhayl taxallusli noma'lum shaxs ekanligidan boshqa ma'lumot yo'q edi. Oxirgi izlanishlar natijasida asarning muallifi Hofiz Tanish Buxoriy ekanligi isbotlandi [12: 256-266; 14: 60]. Manba bugungi kunda yagona nusxada O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida №89 tartib raqami bilan saqlanadi [2]. Muarrix asarni Imomqulixon buyrug'i bilan nazmiy usulda yozgan. Hozirgacha biron tilga tarjima qilinmagan manbada Nadr Muhammadxonning Andijonga yurishi, Marg'ilon uchun jang, Abul Muhammadxonning taslim bo'lishi va yana ko'plab bevosita vodiya bog'liq hodisalar haqida so'z yuritilgan [2: 113a-115b, 115b-119b, 119b-121a, 132a-134a, 136a-138b].

Safaviylar davrida yashagan muarrix Ahmad ibn Shamsiddinning “Tarixi miftah ul-qulub” asarini alohida qayd etish mumkin [3]. Ushbu asar asosan g'arb tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, mavzu bo'yicha qimmatli ma'lumotlar beradi. Afsuski, bizga ma'lum adabiyotlarda muarrixning safaviylar davrida yashaganligidan boshqa ma'lumotlar uchratmadik. “Tarixi miftah ul-qulub” asarining III jildi alohida qimmatga ega bo'lib, unda Chingizxondan tortib Imomqulixongacha bo'lgan davr haqida so'z yuritilgan. Ushbu jild jami 564

sahifadan iborat bo'lib, bugungi kunda Kembrij universiteti (University of Cambridge)ga qarashli Masih kolleji (Christ's college) kutubxonasida D.d. 4.6 raqami bilan saqlanadi [1:312]. Manbani bizga taqdim etilishida o'zlarining bemminat maslahat va yordamlarini ayamagan Kembrij universiteti kutubxonasining "Yaqin va O'rta Sharq" bo'limi boshlig'i Yasmin Fagihi va Masih kolleji kutubxonachisi Katrin Askofga alohida minnatdorchilik bildirib o'tmoqchiman.

Manbaning 554a-564b sahifalari ashtarxoniylar sulolasining Imomqulixongacha bo'lgan siyosiy jarayonlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib unda Farg'ona vodiysi bilan bog'liq ayrim voqealar ham qayd etilgan. Masalan, Andijon hokimi Keldi Muhammadxonning Toshkent va Samarqand atrofida Boqi Muhammadxon bilan kurashi, 1613-yil ashtarxoniylarning vodiya yurishi, Imomqulixon taassrufidagi hududlar kabi ba'zi tafsilotlari boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar mavjud [3: 556a-556b, 564a, 564a-565b]. Ushbu ma'lumotlar "Bahr ul-asror", "Musaxxir al-bilod", "Imomqulixonoma" kabi manbalardagi ayrim ma'lumotlarni faktik jihatdan to'ldiradi.

Boburiylar salatanatida yaratilgan tarixiy manbalarda Buxoro xonligi to'g'risida ham ayrim e'tiborga molik ma'lumotlar qayd etilgan. Saroy tarixchilari tomonidan yaratilgan ushbu tarixiy asarlarda, asosan, Buxoro xonligining Balxga oid fikrlar o'rin olgan. Shunday bo'lsa-da, ba'zi o'rinlarda Buxoro xonligining umumiy siyosiy holatlariga hukmdorlar misolida ham to'xtalib o'tilgan.

Boburiy hukmdor Shoh Jahonning saroy tarixchisi Abdul Hamid Lohuriy "Bodshohnoma" (Podshohnoma) asarida ham muhim ma'lumotlar yozilgan. Shohjahon hukmronligining dastlabki yigirma yilligini qamrab olgan bu asar boshqa boburiy hukmdor Akbarshohga atab yozilgan "Akbarnoma" ga monand qilib bitilgan [19: 3]. Lohuriyning 1654-yilda vafot etganidan boshqa hayotiga oid ma'lumotlar uchratmadik. Asarni esa 1648-yil yozib tamomlagan. Unda Shoh Jahon hukmronligi davrida, asosan, Hindiston yarimorolidagi siyosiy voqealar keng yoritilganligiga qaramay, ba'zi o'rinlarda Balx, Buxoro xonligida kechgan jarayonlar ham qayd etilgan. Jumladan, Nadr Muhammadxon davrini yoritishda muarrix Andijon xalqining qirg'izlar talonchiligidan shikoyat qilganliklari, qalmoqlarning Toshkentga hujumi vaqtida Andijon lashkarining yordami hamda Boqibiy yuz isyoni haqida muarrix qisqa, lekin muhim ma'lumotlarni bergan [20: 437-438].

Tahminan 1676-1677 yillarda yozilgan Shoh Mahmud Churosning "Tarix" asarida tadqiqot mavzusining og'riqli jihati bo'lgan XVII asrning ikkinchi yarmini muhim ma'lumotlar bilan to'ldiradi. 1916-yil Toshkentdagi Boqijonboy kutubxonasida manba bilan tanishgan V.V.Bartold, uni nusxalash uchun Sankt-Peterburgga olib borgan [7: 11]. Manbada Yorkend xonligining siyosiy tarixidan tashqari qo'shni xalqlar bilan munosabatlari haqida ham muhim lavhalarining mavjudligi uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Bugungi kunda asar ikki marotaba sharqshunos olim O.F.Akimushkin tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasida nashr etilgan [7]. Yorkend xonligi Buxoro bilan Farg'ona vodiysi orqali chegaradosh bo'lganligi uchun va vodiya chig'atoy xonlarining asriy mulki

ekanligi ikki xonlik o'rtasida ba'zan keskinlik keltirib chiqargan. Yorkend xonligidagi ichki nizolar natijasida Buxoro xonligiga kelgan sulton Axmad (Fuladxon)ni 1636-yil Andijon qamalida ishtiroki Yorkend xoni Abdullaxonning O'shni egallashi, Andijonga ikki marotaba yurishi kabi buxorolik muarrixlarning asarlarida uchramaydigan ma'lumotlar qayd etilgan [7: 194, 197-199, 202-204]. Bundan tashqari asarda qirg'iz xalqi haqidayam qaydlar mavjud bo'lib, ularni vodiya ommaviy kelish sabablariga birmuncha aniqlik kiritadi.

XULOSA

Ashtarxoniylar sulolasi davri tarixiga oid manbalar o'zining xususiyatlari va geografik qamroviga ko'ra xilma-xil bo'lib, ularni tizimli va qiyosiy-tanqidiy asosda tahlil etish Buxoro xonligi tarixi bo'yicha yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xonlikning sharqiy sarhadi hamda strategik muhim hududi hisoblangan Farg'ona vodiysiga oid ma'lumotlar aksar hollarda yirik geosiyosiy voqealar kontekstida tilga olingan. Bu holat muayyan bir tarixiy jarayon yoki sulola vakillari faoliyatini yoritishda keng va aniq ma'lumot bilan ta'minlasa-da, boshqa bir o'rinda manbaviy jihatdan cheklanganlikni keltirib chiqaradi. Mazkur holatni XVII asr tarixi misolida yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, asrning birinchi yarmida xonlik markaziy hokimiyatining nisbatan barqarorligi, qo'shni davlatlar va mintaqaviy hukmdorlar bilan faol diplomatik hamda harbiy munosabatlar olib borilganligi sababli, manbalarda Farg'ona vodiysi o'ziga xos geosiyosiy makon sifatida tez-tez tilga olingan. Aksincha asrning ikkinchi yarmida esa markaziy hokimiyatdagi o'zaro kurashlarning kuchayishi, sulolaviy ichki urushlar va iqtisodiy inqiroz oqibatida siyosiy jarayonlar asosan poytaxt hamda markaziy viloyatlar atrofida kechdi. Buning natijasida manbalardagi tafsilotlar ham hududiy jihatdan torayib, chekka hududlar hayoti diqqat markazidan chetda qoldi. Ushbu manbaviy bo'shliqni to'ldirish va Farg'ona vodiysi tarixini xolis tadqiq etish uchun an'anaviy manbalar bilan bir qatorda, ma'muriy-boshqaruv hujjatlar, farmon hamda vaqfnomalarni keng miqyosda ilmiy muomalaga kiritish ehtiyoji tug'iladi. Faqatgina ushbu ikki turdagi manbalar ma'lumotlarini tahlil qilgan holda o'rganishgina, XVII asrda vodiydagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni xolis va obyektiv anglash imkonini taqdim etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A supplementary hand-list of the Muhammadan Manuscripts in the Libraries of the University and college of Cambridge. Cambridge University Press, 1922. – 349 p.
2. امام قلى خان نامه. O'zR FA SHI. Qo'lyozma №89. – 150 b.
3. Ahmad b. Shams al-Dīn. Tārīkh-i miftāh al-qulūb, MS Christ's Cambridge Dd.4.6. Reproduced by kind permission of the Master and Fellows of Christ's College, Cambridge. – 564 p.
4. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror fi manoqibi ul-ahyor (VI jild 4-qism). Qo'lyozma mikrofilmi, India Office. № 575. – 409 b.
5. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 430 с.

6. Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI – XVIII вв. (писменные памятники) – Т.: Фан, 1985. – 262 с.
7. Шах-Махмуд ибн Мирза Фазил Чурас. Хроника / Критический текст, перевод, комментарии, исследование и указатели О. Ф. Акимушкина. – 2-е изд. – СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2010. – 496 с.
8. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод / Тасҳихи Нодира Жалолий. – Техрон: Мероси Мактуб, 2008. – 362 б.
9. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод (мамлакатларнинг эгалланиши) / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И.Бекжонов, Д.Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 429 б.
10. Салахетдинова М.А. “Мусаххир ал-билад” Мухаммед Яр ибн Араб катагана (предварительное сообщение) // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. IX годичная научная сессия ЛО ИВ АН СССР (автоаннотации и краткие сообщения). М.: Наука, ГРВЛ, 1973. – С. 77-79.
11. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар): Тарих муаллимлари, талабалар ва юкори синф ўқувчилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.
12. Sangirov J. Hofiz Tanish Buxoriyning “Imomqulixonnomah” asari va uning ashtarxoniylar tarixini o‘rganishdagi o‘rni // “O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Farg‘ona, 2022. – B. 256-266.
13. Арслонзода Р.А. Источниковедение. Фергана, 2019. – 352 с.
14. Сангиров Ж. Ўзбек давлатчилиги аштархонийлар даври тарихи / O‘zbekiston tarixi jurnali. № 1, 2023. – Б. 36-103.
15. Тāрīх-и Кāшгар. Факсимиле рукописи: издание текста, введение и указатели О.Ф. Акимушкина. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2001. – 296 с.
16. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география) / Введ., пер. с перс., примеч. и указ. Б.А. Ахмедова. – Ташкент, 1977. – 167 с.
17. محمود بن ولې. بحر الاسرار فی مناقب الاخيار. بخش بلخ. تصحيح تعليق، و فهارس مايل هروى. — کابل، ۱۳۶۰. — ۳۳۳ ص؛
18. محمود بن ولې بلخى. بحر الاسرار فی مناقب الاخيار. سفرنامه هند و سيلان. پر فسور رياض الاسلام. — کراچى، ۱۹۸۰. — ۲۲۵ ص
19. The History of India, as Told by Its Own Historians. The Muhammadan Period: Ed. from the Posthumous Papers of the Late Sir H.M. Elliot, K.C.B., edited and continued by professor John Dowson, M.R.A.S. Vol. VII. – London: Hertford, 1877. – P. 3.
20. Abd al-Hamīd Lāhawrī. Bādshāhnāmah. / ed. Mawlawis Kabīr Al-Din Ahmad and Abd Al-Rahīm. Vol. II. – Calcutta: The College Press, 1868. – P. 437.

Мусаев А.Б.

Доцент кафедры «Истории Узбекистана»
Ферганский государственный университет
shaxbo1990.ab@gmail.com

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ XVII ВЕКА В ОТРАЖЕНИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется отражение в письменных источниках политических событий Ферганской долины эпохи Аштарханидов. Поскольку территория долины являлась восточным рубежом ханства, сведения об этом периферийном регионе в источниках встречаются относительно редко. Данное обстоятельство может привести к ошибочным выводам о том, что политические процессы развивались исключительно вокруг центральных областей. Однако анализ данных источников показывает, что в первой половине XVII века политическая жизнь в долине была чрезвычайно насыщенной и динамичной.

Ключевые слова: Ферганская долина, династия Аштарханидов, Бухарское ханство, Андижан, Баки Мухаммад-хан, Имам Кули-хан, Келди Мухаммад-хан, Абулай-султан.

Musayev A.B.

Associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
Fergana State University
shaxbo1990.ab@gmail.com

SOCIO-POLITICAL LIFE OF THE FERGANA VALLEY IN THE 17TH CENTURY AS REFLECTED IN HISTORICAL SOURCES

ABSTRACT

The article examines the reflection of political events of the Ashtarkhanid-era Fergana Valley in written sources. Since the valley served as the eastern frontier of the khanate, information regarding this peripheral region is relatively scarce in the sources. This circumstance can lead to the erroneous conclusion that political processes unfolded exclusively around the central regions. However, the analysis of source data indicates that during the first half of the 17th century, the political life of the valley was highly dynamic and intense.

Key words: Ferghana Valley, Ashtarkhanid Dynasty, Bukhara Khanate, Andijan, Baqi Muhammad Khan, Imam Quli Khan, Keldi Muhammad Khan, Abulai Sultan.